O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
SIRDARYO VILOYATI
BOSHQARMASI

Sirdaryo viloyati 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, Hondamir ko‘chasi, 7-uy, Tel/Faks: 71-203-11-08, E-mail: sirdarya_davekspert@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Otajonov Mansurjon Ma’rufjon O‘g‘li

Sana: 21-05-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

241521 - SONLI

Obyekt nomi: “Andijon shahar, Andijon MFY Milliy tiklanish ko‘chasi 16-v-manzil hududida “ORIENT DREAM HOME” MChJ tomonidan “Mavjud binolarni buzib o‘rniga 10 qavatli turar joy bino va inshootlari qurilishi”	
Buyurtmachi:	ORIENT DREAM HOME MCHJ
Bosh loyihachi:	"ME`MOR ARCH CONCEPT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	tanlov asosida
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	062907

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Andijon shahar qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limining 2025-yil 29-martdagi 183655878-sonli “Obyektni istisosini o‘zgartirish va rekonstruksiya qilishga ruxsatnoma”si.

1.2. Belgilangan tartibda tasdiqlangan va kelishilgan loyiha topshirig‘i.

1.3. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 9-apreldagi 1703-1703401-220067-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshiriqlari.

1.4.“O‘ZGAShK LITI” MChJining 2024-yildagi muhandislik-geologik tadqiqotlari bo‘yicha xulosasi.

1.5. Buyurtmachi bilan loyihachi tashkilot o‘rtasida 2025-yil 12-martdagi 09/25-sonli shartnoma.

1.6.Kadastr Agentligining Davlat kadastrlari palatasi Andijon viloyati boshqarmasi Andijon shahar filialining 2025-yil 3-fevraldagi Noturar joy toifasidagi ko‘chmas mulk obyetining kadastr pasporti.

1.7. “ORIENT DREAM HOME” MChJning 2025-yil 12-maydagi 05/13-sonli xati (NBSh)

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

Loyiha tarkibiga koʻra “Andijon shahar, Andijon MFY Milliy tiklanish koʻchasi 16-v-manzil hududida “ORIENT DREAM HOME” MChJ tomonidan “Mavjud binolarni buzib oʻrniga 10 qavatli turar joy bino va inshootlari qurilishi” obyekti boʻyicha loyiha-smeta hujjatlarining elektron shakli.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Obyekt joylashgan hudud tavsifi.

Meʼyoriy qor tushish bosimi - So=0,50 KPa (50 kgs/m2) (QMQ 2.01.07-96)

Meʼyoriy shamol tezligi bosimi - Wo=0,38<0,45 KPa (38<45 kgs/m2) (QMQ 2.01.07-96)

Qurilish klimat zonasi – II.

Hududning zilzilaviyligi – 9 ball.

Binoning zilzilaviy bardoshliligi – 9 ball.

Tuproqning muzlash sathi – (-0.30<-0.70)

Qishgi tashqi havo harorati hisobi – Tn=-20℃

Oʻrtacha yillik harorat – (+18℃)

Eng baland yozgi harorat – (+37℃<+40℃)

Eng past qishgi sovuq harorat – (-12℃<-20℃)

Binoning yongʻinga chidamlilik darajasi – II. (ikkinchi)

Binoning javobgarlik sinfi (tuzilishi) – II. (ikkinchi)

Binoning kontruktiv yongʻin xavfi sinfi – C0.

Binoning funksionallik yongʻin xavfi sinfi (tuzilishi) – F1.3.

Binoning chidamlilik darajasi – II. (ikkinchi)

3.2. Qurilish maydonining chegaralari. (GP).

Shimol tomondan - Elektr ximoya chizigʻi bilan chegaralangan.

Janub tomondan - Hususiy noturar binolar bilan chegaralangan.

Sharq tomondan - Avtoturargox bilan chegaralangan.

Gʻarb tomondan - Loyihaviy koʻcha bilan chegaralangan.

3.3. Bosh reja texnik iqtisodiy koʻrsatgichi. (GP-TEP).

1. Yer maydoni - 2886.00 m2.
2. Bino maydoni - 1272.40 m2.
3. Beton toʻshama - 833.60 m2.
4. Koʻkalamzorlashtirish - 780.00 m2.

3.4. Bosh reja balansi. (GP).

	m2	%
1. Umumiy hudud maydoni	2886.0	100
2. Qurilish maydoni	1272.40	44.09
3. Beton toʻshama	833.60	28.88
4. Koʻkalamzorlashtirish (oʻz hududi)	780.0	27.03

3.5. Bosh reja qaydnomasi. (GP).

1. 10 Qavatli turat-joy binosi. (2 ta blok)
2. Bolalar maydonchasi.
3. Sport maydonchasi.
4. YOXB yashigi.
5. TP.
6. Qozonxona.
7. Avto turargox.
8. Chiqindilar yashigi.
9. Besedka.

10. YOXB xovuzi 100m3.

3.6. Arxitektura rejalashtirish yechimi. (Turar-joy binosi. AR).

Loyihadagi 10-qavatli turar joy binosi qurilishi loyihasi obyekt Andijon viloyati Andijon shahar, “Andijon” MFY, “Milliy tiklanish” ko‘chasi 16-v-manzil hududida joylashgan. Obyekt hudud joylashuviga qarab funksional imkoniyatlarini hisobga olgan holda arxitekturaviy-rejalashtirish yechimi qabul qilingan, shuningdek iqlim va mahalliy sharoitlar hisobga olingan. (2ta blokdan iborat).

10 qavatli turar-joy binosi o‘q chiziqlari bo‘yicha (A-F) 17.30 metrni va (1-8) o‘q chiziqlari bo‘yicha 36.00 metr o‘lchamlari bilan to‘rtburchak shaklda loyihalangan. Binoning umumiy balandligi sokol qismi +0,00 dan eng baland parapet qismigacha h=+34,08 metrni tashkil etadi. Binoning barcha qavatlar balandligi poldan shiftgacha h=+2,72 metrni. Tomi yog‘och karkas ustiga profnasti profili bilan yopilgan. Sokol qavatining balandligi h=3,32 metrni tashkil etadi. Sokol sathi yuzasi 1-qavat h=+0,00 metrda boshlanadi. Binoning atrofi tasma beton yo‘lak (otmostka) bilan qoplangan. Bino sokol sathi h=-1.20 metr sathda.

3.7. Texnik iqtisodiy ko‘rsatgichlar. (Turar-joy binosi. AR-TEP).

1. Qurilish maydoni. – 636.20 m2
2. Umumiy maydoni. – 5 689.23 m2
3. Qurilish hajmi. – 23 425.00 m3

3.8. Tashqi va ichki pardozlash ishlari. (Turar-joy binosi. AP).

Tashqi devorlari – Qalinligi 250 mm.li gazoblok bilan devorlar to‘ldirilgan. (issiqlik himoya qatlami bilan o‘ralgan).

Tashqi issiqlik himoya qoplamasi – Qalinligi δ=80÷120 mm.dan kam bo‘lmagan mineral tolali (PPJ-Ɣ=120÷125kg/m3) issiqlik qoplama bilan qoplanadi.

Tashqi bezak – Travertin suvoq bilan qoplanadi.

Sokol – Silliqlangan keramogranit bezagi bilan qoplanadi.

Krilso – Silliqlangan keramogranit bezagi bilan qoplanadi.

Otmostka – Bino perimetri beton qoplamasi quyiladi. eniga 1500mm, beton sinfi B15 belgili qalinligi 50 mm. bo‘lgan shag‘al asos 120mm.

Karniz – Dekorativ pena plyaster bilan qoplanadi.

Kozirek – Dahliz soyabonlari profnastil paneli turidagi qoplamadan.

Dekorativ elementlar – Pena plyaster bilan qilinadi.

Tom qoplamasi – Yog‘och konstruksiyasi ustidan profnastil profil qoplama qoplanadi.

Tom yopmasi – Yog‘och konstruksiya, monolit temirbeton ustidan.

Tom issiqlik qoplamasi – Mineral tolali bazalt bo‘lgan qoplama bilan qoplanadi.

Tashqi tokchalar – Po‘lat yuzali (otsenkovka) metal qoplamadan. qalinligi 0.5mm eniga 200mm.

Ichki devorlar – Qalinligi 150÷250 mm.li gazoblok bilan devorlar to‘ldirilgan. shpaklyovka bilan tekislanadi, ustidan yorqin rangda suv asosli emulsiya bilan bo‘yaladi.

Yuvinish xonalari – Devorlar kafellari glazurli plitkalar bilan qoplanadi.

Pollar – Keramik plitka, keramogranit, laminat qoplanadi.

Shiftlar – Choklari yopilib, yelim tarkibli shpaklyovka bilan tekislanadi, suv asosli emulsiya bo‘yoq bilan yorqin ranglar bilan bo‘yaladi.

Eshiklar – Metal profillardan tayyorlangan individual ishlab chiqariladi. Ichki eshiklar, MDFdan yasaladi. Alyumen eshiklar sanitar xonalarga o‘rnatiladi.

Derazalar – 2 qatlamli (steklopaket) shaffof oynalardan tayyorlanadi, individual PVX profillardan ishlab chiqariladi.

Darcha derazalar – (Framuga) 2 qatlamli (steklopaket) shaffof oynalardan tayyorlanadi, individual PVX profillardan ishlab chiqariladi
Tokchalar – PVX plastik.
Plintuslar – PVX plastik, keramik.
Vitraj – PVX profildan shaffof shishali, mahkamlanadigan profillaga qotiriladi.
3.9. Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun yechimlar. (AR)
Yangi qurilsih loyihasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarga qulay va to‘siqlarsiz muhit yaratish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida” PQ-266-son Qarori bilan tasdiqlangan chora-tadbirlarining kirish va chiqish, fuqarolarni nogironligi bo‘lgan shaxslarning erkin foydalanishi uchun moslashtirish talablari bajarilgan. Eshiklar ostonasiz qilingan. Pandus va perillalar oldi kirish qismiga o‘rnatilgan. Tashqi yo‘laklarda taktil qoplama qo‘llanilgan. Lift va panduslarning yuqori pol sathi ±0.00 sathda loyihalangan. Avtoturargoh loyihada kiritilgan, belgi o‘rnatilmagan.
Buyurtmachi “Orient Dream Home” MCHJning 2025-yil 12-maydagi 05/13-sonli xati (NBSh)da boshqa ish turlari loyihadan ortig‘i bilan bajarilishi kafolatlangan. Bajarilmagan boshqa talablar va ish turlari bo‘yicha buyurtmachi va loyihachi javobgar. “Nogironligi bo‘lgan shaxslar” uchun qurilmalar va jixozlarini o‘rnatish, qurilish jarayonida buyurtmachi va quruvchi o‘rtasida aniqlanadi. Barcha talablar bajarilishini ta’minlash va javobgarlikni o‘z zimmasiga olgan holda buyurtmachi ijobiy xulosani qabul qilishi bilan unga yuklanadi.
3.10. Energiya samaradorligi va enrgiya tejamkorligi.
PVX derazalar, standart shisha peket kamerali profil, ikki tomonlama energiya tejaydigan oynali.
Barcha derazalar shamollatish uchun murakkab ochilish qurilmalariga ega, metal profillar bilan qoplangan.
Tashqi devorlari – D500÷600 gazoblok 250 qalinlikdagi devorlar bilan to‘ldirilgan. Hajmiy og‘irligi PPJ-ϒ=120÷125kg/m3 GOST 9573-2012. δ=80÷120 mm.dan kam bo‘lmagan mineral bazalt tolali va boshqa yonmaydigan turga mansub mineral plitka qoplama bilan qoplanadi.
Tom qoplamasi himoya materiali – Yog‘och konstruksiya bo‘ylab polimer qoplamasi ustidan profnastil profili qoplamasi bilan qoplanadi.
Tom issiqlik qoplamasi – Mineral tolali bazalt bilan qoplanadi.
Eshik romlarini-issiqlik saqlovchi va zamonaviy eshik romlarini o‘rnatilgan, binoning kirish eshiklariga o‘zi yopiluvchi mexanizmlar o‘rnatilgan.
Tom qismiga quyosh panellari uchun servis narvonlari loyihalangan.
Elektr ta’minotida – Binoda energiya sarfini qisqartirish va zahira bo‘yicha, muqobil energiyadan foydalanish samaradorligini oshrish uchun binoning tom qismiga quyosh fotoelektrik modul mono kristalli quyosh panellari o‘rnatilgan.
Binoni qo‘shimcha issiq suv bilan ta’minlash uchun quyosh panelli suv isitgichlari o‘rnatilgan.
Binoni ichki xonalari va yo‘laklarini yoritish tizimida energiya tejamkor LED (turidagi) belgili yoritgich panellar qo‘llanilgan.
3.11. Konstruktiv yechimlari qisqacha ma’lumot:
Binoning o’qlar bo’yicha umumiy o’lchamlari – 36.0x17.3m, to’g’ri to’rtburchak shaklida;
Bino qavatliligi – 10 qavatli, yerto’lali;
Bino poydevorini qurish uchun dastlab yer qazish ishlari bajariladi;
Poydevori – B22.5 sinfli yaxlit quyma temirbeton plitadan iborat, kesim qalinligi 1000mm;
Yerto’la devori – B25 sinfli quyma temirbeton devorlardan iborat, kesim qalinligi 250mm;

Devorlari – B25 sinfli yaxlit quyma temirbeton devor konstruksiyalaridan iborat, kesim qalinligi 250mm;
To’sinlari – B25 sinfli quyma temirbeton yopiq to’sin (skrыtaya rigel) elementlaridan iborat, kesim o’lchamlari 250x400mm;
To’suvchi va ajratuvchi pardevorlari – qalinligi 100mm, 150mm va 250mm li gazoblok terimlaridan iborat. Pardevorlarni kuchaytirish gorizontal armosetka hamda metall konstruksiya elementlari yordamida bajariladi;
Orayopma va tomyopma elementlari – B25 sinfli quyma temirbeton plitalardan iborat, kesim balandligi 200mm;
Tom qismi – yog’och konstruksiya elementlari ustidan profnastil qoplamalari o’rnatiladi;
Zina konstruksiyasi – 25 sinfli quyma temirbeton marsh va maydoncha konstruksiyalaridan iborat;
Tashqi poypesh va yerto’ladan chiqish zina konstruksiyalari – quyma temirbeton konstruksiyalardan iborat;
Lift shaxtasi - B25 sinfli quyma temirbeton devorlardan iborat, kesim qalinligi 250mm;
Barcha metall konstruksiya elementlarining sirt yuzalari moyli bo’yoq bilan bo’yaladi.
3.12. Yong‘in xavfsizligi bo‘yicha qisqacha ma’lumot.
Konstruksiyalarning chegaralangan holatlariga ko‘ra, binolarning
olovbardoshlik darajasi - I, konstruktiv yong‘in xavfi sinfi – S0, funksional yong‘in xavfi sinfi - 1.3. Binolarning balandligi +27,0 m (eng yuqori qavatining ochiladigan eshigining pastki chegarasigacha).
Loyiha bilan quyidagilar ko‘zda tutilmoqda: Turar joy binolarining yerto‘la
qavatida texnik xona va omborxonalar, 1-10 qavatlarida turar joy xonalarining joylashtirilishi, lift qurilmasi 1-qavatdan pastga tushmaydigan qilib loyihalangan, binolarning tomiga chiqish ichki zinapoya orqali, xonalarning isitilishi hududda joylashgan qozonxona orqali.
Yong‘in xavfsizligini ta’minlash maqsadida quyidagi tadbirlar ko‘zda tutilgan:
Turar joy binolari tashqi devorlarining izolyatsiyasi yonmaydigan materiallardan (travertin) ishlov berilishi, barcha qo‘llaniladigan yog‘och konstruksiyalariga yonish xususiyatini pasaytiruvchi suyuqlik (antipiren) bilan ishlov berilishi, yerto‘la qavatida chuqurchalar bilan ta’minlangan derazalar, yerto‘la qavatidan bevosita tashqariga chiqish evakuatsiya yo‘li, yong‘in o‘chirish qalqonlari, binolar atrofida yong‘in-qutqaruv avtoekipajlari harakatlanishi uchun qattiq qoplamali yo‘l, ichki yong‘in o‘chirish suv tizimi, tizimda suv bosimini ko‘tarish maqsadida yerto‘la qavatida joylashgan nasos stansiyasida yong‘inga qarshi nasoslar, xonadonlar kirish yo‘lagi va oshxonalariga yong‘in signalizatsiya va odamlarni yong‘indan xabardor va evakuatsiya qilishni (2-tur) boshqarish tizimlari, chiqish joylarida yong‘in signalizatsiyasining qo‘lda ishlovchi tashvishgohlari, binoning yer usti qavatlaridan evakuatsiya uchun L1 tipdagi zina kataklar, 15 m. dan yuqorida joylashgan xar bir kvartiradan ochiq turdagi balkonlarga chiqish joyi, chetidan (tores) derazagacha eniga 1,2 m dan kam bo‘lmagan yopiq devor, yong‘in o‘chirish tashqi manbaasi sifatida 2 ta jami 50 kub.m. hajmli suv saqlash sig‘imi, ichki yong‘inga qarshi suv ta’minoti tizimida kranlarning ishlash muddati 3 soatdan kam bo‘lmagan, yong‘inga qarshi nasoslar ishonchligi I-darajali elektr ta’minoti bilan ta’minlanishi, gazda ishlaydigan jihozlar o‘rnatiladigan xonalarida gaz quvurlarida gazanalizatorlar va gazni o‘chiruvchi klapanlar o‘rnatilishi nazarda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Elektr ta’minoti bo‘yicha qisqacha ma’lumot:
Elektr yoritish.

Loyiha loyihalash topshirig‘i asosida hamda me’yor va qoidalarga muvofiq ishlab chiqilgan.
Tarmoq kuchlanishi 380/220Vt.
Loyihada umumiy ishchi va avariyaviy yoritish ko‘zda tutilgan.
Kiritish-taqsimlash qurilmasi sifatida VRU turidagi panel qabul qilingan.
Turar joy binosining elektr energiyasini hisobga olish elektron hisoblagich bilan ta’minlanadi. Umumiy uy iste’molchilarini hisobga olish VRU kirish-taqsimlash qurilmasiga o‘rnatilgan elektron hisoblagich yordamida amalga oshiriladi.
Qavat shchitlari sifatida har bir qavatning xolida o‘rnatilgan, EX-18 tipidagi elektron hisoblagichli QE shchitlari qabul qilingan.
Kvartira shchitlari sifatida guruhli bir fazali avtomatik uzgichli SHRN tipidagi shchitlar qabul qilingan. Xonadon shchitlari xonadonlarning kirish yo‘laklariga o‘rnatilgan.
Qavat shchitlariga magistral tarmoq yerto‘ladagi kabel politilen quvurlarda VVGng kabeli bilan bajariladi.
Zina kataklari, xollar ishchi yoritilishining ta’minlovchi tarmog‘i VVGng kabeli bilan kabel politilen quvurlarda bajariladi, devorlar bo‘ylab shtrablarda yashiringan.
Yoritgichlar turini tanlash xonaning vazifasi va atrof-muhit xususiyatlariga muvofiq amalga oshiriladi.
Kvartiralarning barcha xonalarida klemma kolodkalari, oshxona va dahlizlarda klemma kolodkalari va osma patron, birlashtirilgan sanuzellarda - chiroqlar o‘rnatilishi nazarda tutiladi.
"CHIQISH" ko‘rsatkichlari tashqi chiqishlarga o‘rnatiladi. Yoritishni boshqarish o‘chirgichlar yordamida amalga oshiriladi.
Odamlarni elektr toki urishidan himoya qilishning asosiy chorasi sifatida loyihada barcha elektr uskunalarini nolga keltirish ko‘zda tutilgan. Elektr uskunalarining barcha tok o‘tkazmaydigan metall qismlari yerga ulanishi kerak.
Barcha montaj va qurilish ishlari QMK ETBga muvofiq amalga oshirilsin.
Elektr energiyasini tejash uchun binoni muqobil energiya bilan ta’minlash rejalashtirilmoqda.
Muqobil energiya binoning tom qismida 580 Vt quvvatga ega quyosh panellarini o‘rnatish orqali ta’minlanadi.
Tashqi elektr tarmoqlari bo‘yicha:
Ushbu loyiha me’yor va qoidalarga muvofiq loyihalash topshirig‘i asosida bajarildi.
Obyektning elektr ta’minoti loyihalashtirilayotgan-2GKTP-1000kVA transformator podstansiyasidan ta’minlanadi.
Transformator podstansiyasidan taqsimlash shchitlariga (VRU-1 va VRU-2, qozonxonaga) VBBShv markali kabel 0,7 m dan kam bo‘lmagan chuqurlikda yotqiziladi, qumli yostiqqa va ustidan g‘isht bilan himoyalanadi.
Obyekt hududini yoritish uchun zamonaviy o‘rnatilgan energiya tejamkor ko‘cha yoritish fonar ustunlari quyosh batareyalari komplektiga ega bo‘lgan yorug‘lik diodli yoritgichlar.
Kabel boshqa muhandislik tarmoqlari va inshootlari bilan kesishganda asbestga sement quvur yotqizilsin.
Eslatma:
1. Ishchi loyihani "O‘zenergoinspeksiya"ning Andijon filiali bilan kelishish zarur.
2. Buyurtmachi tashkilotning Qurilish yakunida tashqi LEP 6/10 kV li tarmoq loyihalashtirilishini va tarmoqqa ulanishini o‘z zimmasiga qoladi.
4.2. Isitish va shamollatish tizimi bo‘yicha qisqacha ma’lumot:
Isitish va shamollatish tizimi.

Issiqlik ta’minoti manbai etib -loyiha bo‘yicha tashqariga loyihalangan ikkita 400kwt lik MTB qozonidan ta'minlanadi. Ikki konturli suv isitish qozonlari isitish tizimlari uchun ishlatiladi. Loyihada isitish tizimi ikki quvurli, nasosli tizim sifatida qabul qilingan. Isitish tizimi uchun issiq suv parametrlari 80-60°C bo‘lgan suvdir. Alyumin radiatorlar isitish moslamalari sifatida ishlatiladi. Pollar va devorlar kesishmasida yotqizilgan quvurlar yonuvchan bo‘lmagan materiallardan yasalgan yenglarda o‘tkaziladi. Tizimning quvurlari polipropilendan tayyorlangan, PN 25 turi. Isitish tizimini tartibga solish uchun issiqlik uzatish kuvurlari va ularning o‘lanishlarida isitish moslamalarini o‘chirish imkoniyati bor klapanlar yetkazib berish va qaytarish quvurlariga o‘rnatilgan. Isitish tizimlaridan havoni olib tashlash uchun isitish moslamalarining yuqori nuqtasiga o‘rnatilgan yarim avtomatik havo chiqargichlar orqali ta’minlanadi. Isitish tizimlarining ko‘targichlaridan suv tizimning pastki nuqtalarida joylashgan drenaj klapanlari yordamida chiqariladi. Barcha magistral quvurlar va ko‘targichlar izolyatsiya qilingan. Qavatlar, ichki devorlar va bo‘linmalar kesishmasidagi quvurlar yonmaydigan materiallardan yasalgan yenglarga yotqizilgan.

Shamollatish tizimi bo‘yicha:

Binoda shamollatish mexanik va tabiiy uslub bo‘yicha mo‘ljallangan. Xonalarda havo almashinuvi hisoblash yo‘li bilan aniqlangan va shuningdek, havo ta’minotining sanitariya normasi bo‘yicha hisoblangan. Shamollatish tizimlari binoda o‘rnatilgan. Binoning texnik qavatida shamollatish mexanik uslub orqali qabul qilingan. Qulay sharoitlarni yaratish maksadida konditsionerlar o‘rnatilishi nazarda tutilgan. Tabiiy va mexanik uslub shamollatish binoda ta’minlangan, havo oqimi uyushmagan va derazalarning ochilish orqali amalga oshiriladi. Havoni chiqarib tashlash qurilish loyihalarida vertikal shamollatish kanallari orqali mo‘ljallangan. Ichkari xonalar havosining chiqishi tomning tepasiga chiqarish bilan mo‘ljallangan. Montaj va sozlash ishlari KMK 3.05.01-97 koidalari asosida bajarilishi ta’kidlangan.

4.3. Suv va oqava suv tarmoqlari bo‘yicha qisqacha ma’lumot

Mazkur obektda suv va oqava suv tarmoqlari loyihada nazarda tutilgan.

4.4. Yong'in signalizatsiyasi bo‘yicha qisqacha ma’lumot.

Loyihaning ushbu bo'limi dizayn xususiyatlari va QMQ 2.04.20-98, MKM 01-
04 ga muvofiq ishlab chiqilgan. Loyiha xavfsizlik va yong'in signalizatsiya
tarmoqlarinio'rnatishni nazarda tutadi. Abonent tarmog'i KPSng(A) 2x2x0,75 ochiq simli va PVX kabel kanallarida olib boriladi va dahliz o't o'chirish stantsiyasida o'rnatilgan Pribor priyomno-kontrolniy i upravleniya oxranna pojarniy "Grand Magistr" rusumli boshqaruv panellariga chiqariladi. Yong'in va o'g'irlik signalizatsiyasining elektr qabul qiluvchilarini elektr ta'minoti 3 - toifaga kiradi va bitta mustaqil quvvat manbalaridan amalgaoshiriladi. Asosiy quvvat 220V, 50Gts o'zgaruvchan tok bilan ta'minlanadi.

4.5.Buyurtmachi tashkiloti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.03.2018-yildagi 256-sonli qarori talablariga rioya qilinsin. Obyekt bo‘yicha muhandislik tarmoqlariga ulanish va ulardan foydalanish bo‘yicha tegishli manfaatdor xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar bilan loyiha kelishilsin.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasining loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va Shaharsozlik kengashi ishchi organining 2025-yil 18-apreldagi 186705314-sonli xulosasi.

5.2. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, Atrof-muhitni muhofaza qilish va Iqlim o‘zgarishi vazirligi Davlat Ekologik Ekspertizasi markazi Andijon viloyati filialining 2025-yil 11-apreldagi 01-02/03-3931-sonli Davlat Ekologik ekspertizasi xulosasi.

5.3.“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ “Andijon hududiy filiali”ning elektr tarmoqlariga ulanish uchun 2025-yil 6-maydagi 0340136837-sonli texnik sharti.

5.4. “Andijon viloyati suv ta’minoti”AJ ning 2024-yil 9-avgustdagi 311213986-sonli texnik sharti (324).

5.5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.03.2018 yildagi 256-sonli va 20.04.2022 yildagi 200-sonli qarorlari talablariga qat’iy roiya qilingan holda buyurtmachi loyiha-smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda tegishli manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **34 102 306 872** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

13 881 502 243 so'mga oshirilib, **47 983 809 115** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **40 116 432 223** so'm

Asbob-uskunalar: **2 726 254 487** so'm

QQS: **5 141 122 405** so'm

6.1. Loyiha-smeta hujjatlari ekspertizaga buyurtmachining e’tirozlarisiz taqdim qilindi.

6.2.Ekspertiza jarayonida soxa ekspertlari xulosasi izohlari buyurtmachi va loyihachi tomonidan qabul qilinib, loyihaga tuzatishlar va qo’shimchalar kiritildi.

6.3. - ishchi-quruvchilar – 231 640,813 odam/soatni tashkil etgan.

6.4. Buyurtmachi va Loyihachi tashkilotlarga kamchiliklar va xatolarni bartaraf etish bo‘yicha talab va izoxlar:

- NVK-1 varag‘ida (umumiy ma’lumotlar) obyekt qurilish uchastkasining muhandislik-geologik sharoitlari to‘g‘risidagi xulosaga muvofiq gruntning cho‘kuvchanlik turini ko‘rsating.
- NVK-1 varag‘ida (umumiy ma’lumotlar) loyiha haqida qisqacha ma’lumotlar ko‘rsatiladi.
- NVK-1 varag‘ida (umumiy ma’lumotlar) tarmoq quvuridagi kafolatlangan bosim ko‘rsatiladi.
- NVK-1 varag‘ida (umumiy ma’lumotlar) tarmoqni ulash uchun texnik shartlar raqami va sanasi ko‘rsatiladi.
- NVK-1 varag‘ida (umumiy ma’lumotlar) QMQ 2.04.02-19 ning 2.13-bandiga muvofiq tashqi yong‘inni o‘chirish uchun suv sarfini ko‘rsating. 7.
- NVK gen rejasida mavjud tarmoqlarning joylashuvini ko‘rsatish.
- Tarmoqlarning bo‘ylama profilini ishlab chiqish.
- NVK bosh rejasiga tarmoqlarni bog‘lash.
- 1-tur gruntli sharoitlarda suv quvurlari va kanalizatsiya tarmoqlarini transheyali yotqizishda cho‘kuvchanlik bo‘yicha bino va inshootlar qo‘shimcha poydevorlari tarmoqlaridan gorizontal bo‘yicha (yorug‘likda) masofa kamida 5m bo‘lishi kerak. 56, p. 10.
- Suv quvurlari tarmoqlaridagi quduqlarni I turdagi gruntli sharoitlarda.
- Ishchi loyihani "O‘zenergoinspeksiya"ning Andijon filiali bilan kelishish zarur.
- Qurilish yakunida tashqi LEP 6/10 kV li tarmoq loyihalashtirilishini va tarmoqqa ulanishini inobatga olish.
- Yuqoridagilardan kelib chiqib, obyektning loyiha-smeta hujjatlaridagi kamchiliklarni to‘g‘irlash va bartaraf etish bo‘yicha javobgarlik Buyurtmachi va loyiha tashkiloti zimmasida qoladi.

6.5.O‘zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi 684-son Qonuni va O‘zbekiston Respublkasi Vazirlar Mahkamasining 31.01.2022 yildagi 46-son qarori va ShNQ 4.01.16-09 me’yorlariga muvofiq obyektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi. Tasdiqlash

uchun tavsiya etilgan yangi qurilish ishlari narxi bo‘yicha asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korxonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

6.6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.07.2022-yildagi yildagi PQ-332-son Qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, obektning cheklangan qiymati buyurtmachi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi "Loyihalarni va import kontraktlarni kompleks ekspertiza qilish markazi" DUKning ijobiy xulosasini hisobga olgan holda aniqlanadi. Ushbu qaror 2-ilovasining 1-bob, 4-bandiga asosan- "Binolar, inshootlar va muhandislik kommunikatsiyalarini kapital qurish va ta’mirlash bo‘yicha tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridini amalga oshirish uchun xarid qilish hujjatlari Markazga texnik topshiriq shaklida loyiha-smeta hujjatlari bilan birgalikda kiritiladi va ulardagi tovarlar (ishlar, xizmatlar) hajmlari va narx parametrlarining asosliligi yuzasidan ekspertizadan o‘tkaziladi.

6.7. O‘zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi 4-bob 23,24,25-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 17.09.2021 yildagi №579-sonli qarorining 4-bandiga asosan "Qurilishi markazlashtirilgan manba’lar hisobiga moliyalashtiriladigan obektlarning boshlang‘ich qiymati Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy saytiga (stat.uz) joylashtirib boriladigan qurilish materiallarining joriy narxlari, mashina va mexanizimlar xizmati uchun o‘rtacha narxlar hamda o‘rtacha ish haqi ko'rsatkichlaridan foydalangan holda shakllantiriladi" hamda mazkur qarorning 1-ilova 3-bob 29-bandiga asosan "Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlari bo'yicha buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir".

6.8. Buyurtmachi, loyiha muallifi va pudrat tashkilotlari Mehnat va texnika xavfsizlik qoidalariga hamda yong‘in xavfsizligiga rioya qilinsin.

6.9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.05.2021-yildagi 321-sonli qarorning 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida “Mualliflik nazorati”ni amalga oshirilishini ta’minlaydi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda “Andijon shahar, Andijon MFY Milliy tiklanish ko‘chasi 16-v-manzil hududida “ORIENT DREAM HOME” MChJ tomonidan “Mavjud binolarni buzib o‘rniga 10 qavatli turar joy bino va inshootlari qurilishi” ishlari yuzasidan loyiha hujjatlari mazkur yig‘ma ekspert xulosasining 6.4. bandidagi ko‘rsatilgan kamchiliklarini bartaraf etish sharti bilan kelgusida ko’rib chiqish va kelishish uchun tavsiya etiladi. Agarda loyihaning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan barcha kamchiliklarni Buyurtmachi va loyihachi tashkiloti tomonidan qurilish ishlari boshlanguncha tuzatilmagan taqdirda, berilgan ekspertiza xulosasi o‘z kuchini yo‘qotgan (bekor qilinadi) deb hisoblanishini bildiramiz.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, obyektning loyiha-smeta hujjatlaridagi kamchiliklarni to‘g‘irlash va bartaraf etish bo‘yicha javobgarlik Buyurtmachi va loyiha tashkiloti zimmasida qoladi.

7.2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003-yildagi 261-sonli qarori va ShNK 4.01.16-09 ga muvofiq, tanlov savdolarini o‘tkazish uchun obektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

Bosh ekspert: Elmurodov Asliddin Kulmurodovich.

Ishtirokchi ekspertlar: Kosherbaev Muratbek Abatovich, Shukurov Rustam Sunnatovich, Niyazov Alisher Maxmudovich, Xakimov Olimjon Kamiljanovich, Eshonxonov Bobur G‘ofur O‘g‘li, Elmurodov Asliddin Kulmurodovich, Djabbarova Lenura Appazovna, Abdullayev Shavkat Rahmatulla O‘g‘li, Djurayev Sherali Axmatjanovich